

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 7 579,8 mld. so'mni tashkil etdi va 2023- yil yanvar-martga nisbatan o'sish sur'ati 105,7 foizga teng bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida YAHM deflyator indeksi 109,3 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)—milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari, foizda
2024- yil yanvar-mart oylarida**



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish sohasida -122,1 foiz (umumi ulushning 6,9 foizi), jami xizmatlar - 105,7 foiz (umumi ulushning 44,0 foizi), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 103,5 foiz (umumi ulushning 29,8 foizi), sanoat – 104,1 foiz (umumi ulushning 19,3 foizi) ni tashkil qildi.



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

YAHMning o'sishida tarmoqlarning qo'shgan hissasi (jamiga nisbatan % da)



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2023- yil yanvar-martda – 1,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,8 f.p. (2023- yil yanvar-martda – 0,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,3 f.p. (2023- yil yanvar-martda – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2023- yil yanvar-martda – 1,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yil yanvar-martda – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.



**Yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi**

| | <i>mlrd. so‘m</i> | | <i>2023- yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i> |
|--|------------------------------|------------------------------|---|
| | <i>2023- yil yanvar-mart</i> | <i>2024- yil yanvar-mart</i> | |
| I. Yalpi hududiy mahsulot, jami | 6 557,3 | 7 579,8 | 105,7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 6 336,9 | 7 375,7 | 105,7 |
|  mahsulotlarga sof soliqlar | 220,4 | 204,1 | 106,7 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 6 336,9 | 7 375,7 | 105,7 |
|  Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 1 983,8 | 2 197,9 | 103,5 |
| Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) | 1 697,5 | 1 931,0 | 108,2 |
|  sanoat | 1 310,0 | 1 421,3 | 104,1 |
|  qurilish | 387,5 | 509,7 | 122,1 |
| Xizmatlar | 2 655,6 | 3 246,8 | 105,7 |
|  savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 423,8 | 494,9 | 106,5 |
|  tashish va saqlash, axborot va aloqa | 462,1 | 597,2 | 113,0 |
|  boshqa xizmat tarmoqlari | 1 769,7 | 2 154,7 | 103,6 |

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga asosiy ta’sir qurilish sohasida -122,1 foiz (umumiyl ulushning 6,9 foizi), jami xizmatlar - 105,7 foiz (umumiyl ulushning 44,0 foizi), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 103,5 foiz (umumiyl ulushning 29,8 foizi), sanoat – 104,1 foiz (umumiyl ulushning 19,3 foizi) ni tashkil qildi.

YAHM ishlab chiqarish umumiyl hajmining 63,0 foizi kichik tadbirdorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2023- yil yanvar-martda 62,6 foizni tashkil qilgan.


Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi, % da (jamiga nisbatan foizda)

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasining ulushi 29,8 foizni tashkil qildi va 2023- yil yanvar-martiga (31,3 foiz) nisbatan 1,5 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo‘sghan holda) ulushi 26,2 foizni tashkil qilib, 2023 – yil yanvar-martga (26,8 foiz) nisbatan 0,8 punktga kamadir. Xizmatlar sohasi ulushi 44,0 foizni tashkil qildi va o‘tgan yilga (41,9 foiz) nisbatan 2,1 punktga ko‘pdir.

2023-yil yanvar-mart



2024-yil yanvar-mart



Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-mart oylari, jamiga nisbatan ulushi)

2024-jyilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 63,0 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 62,6 %), hajmi 4 648,6 mlrd. so‘mni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 3 966,6 mlrd. so‘m) tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)




O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘sghan hissasi 3,1 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 foizga kamaygan.

Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, foizda




Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 791,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,7 foiz o‘sishga erishildi.




*Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)*

2023- yil yanvar-mart



2024- yil yanvar-mart



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

2024- yil yanvar-mart oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 44,0 foiz (2023- yil yanvar-mart oylarida 41,9 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 6,7 foizni (2023- yil yanvar-mart oylarida 6,7 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 8,1 foizni (2023- yil yanvar-mart oylarida 7,3 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar– 29,2 foizni (2023-yil yanvar-mart oylarida 27,9 foiz) tashkil etdi.

**O'zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining
asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari**
(2024- yil yanvar-mart)

| | <i>O'zbekiston Respublikasi</i> | | <i>Xorazm viloyati</i> | | <i>Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da</i> | |
|--|---------------------------------|----------------------------|------------------------|----------------------------|--|-----------------------------|
| | <i>mlrd. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> | <i>mlrd. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati % da</i> | <i>yanvar-mart 2023 - y.</i> | <i>yanvar-mart 2024- y.</i> |
| Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot | 242 701,6 | 106,2 | 7 579,8 | 105,7 | 3,3 | 3,1 |
| Sanoat | 166 363,3 | 106,5 | 5 265,5 | 104,1 | 3,7 | 3,2 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 45 367,9 | 103,6 | 3 705,3 | 103,6 | 8,3 | 8,2 |
| Investitsiyalar | 107 060,8 | 174,5 | 2 489,6 | 137,0 | 2,9 | 2,3 |
| Qurilish ishlari | 31 058,8 | 106,8 | 1 215,6 | 124,8 | 3,3 | 3,9 |
| Chakana tovar aylanmasi | 70 973,6 | 106,9 | 2 877,6 | 105,7 | 4,1 | 4,1 |
| Xizmatlar, jami | 127 872,1 | 114,2 | 3 632,9 | 116,8 | 2,8 | 2,8 |
| Eksport (mln. AQSh doll.) | 6 384,4 | 110,0 | 92,1 | 130,3 | 1,2 | 1,4 |
| Import (mln. AQSh doll.) | 9 438,6 | 103,8 | 99,4 | 75,0 | 1,5 | 1,1 |

2024- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 7 579,8 mlrd. so‘mni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,1 foizni tashkil qilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 foizni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5 265,5 mlrd. so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,2 foizini) tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 104,1 foizni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 3 705,3 mlrd. so‘mni (respublikada qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 8,2 foiz) tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,6 foizga etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 489,6 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o‘sish sur’ati 2023- yilning shu davriga nisbatan 137,0 foizni (respublikadagi ulushi 2,3 foiz) tashkil etdi.

2024-yil yanvar-mart oylarida 1 215,6 mlrd. so‘mlik (respublikadagi ulushi 3,9 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 124,8 foizni tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 877,6 mlrd. so‘mni (respublikadagi ulushi 4,1 foiz), o‘sish sur’ati 2023- yilning shu davriga nisbatan 105,7 foizni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 3 632,9 mlrd. so‘mni, (respublikadagi ulushi 2,8 foizni) tashkil qildi va 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish 116,8 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-mart oylarida 191,5 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,2 foizni), o‘sish sur’ati 94,3 foizni, jumladan: eksport – 92,1 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,4 foizni), o‘sish sur’ati 130,3 foizni, import – 99,4 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,1 foizni), o‘sish sur’ati 75,0 foizni tashkil etdi.

YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 29,8 % ni, sanoat tarmog'i 19,3 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 44,0 % ni tashkil qildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

2023- yil



2024- yil

